



Ways of emergence and development of the concept of competence

Jurayeva TURGUNOY¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024

Received in revised form

10 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

25 June 2024

Keywords:

competence,
communicative,
communication,
harmonious personality,
students,
teachers,
collaborationism,
creative thinking,
communicability,
critical thinking,
competence,
base competence,
knowledge,
competence,
skill.

ABSTRACT

This article discusses the emergence and development of the word competence. At the same time, it was also mentioned that the teacher should establish a role and communicative communication in the development of competence.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp563-569>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kompetensiya tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlantirish yo'llari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kompetensiya,
kommunikativ,
muloqot,
barkamol shaxs,
o'quvchilar,

Ushbu maqolada kompetensiya so'zining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida fikrlar ketirilgan. Shu bilan birga kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchining o'rni va kommunikativ muloqot o'rnatishi kerakligi ham aytib o'tilgan.

¹ Teacher, Department of Methods of Teaching Social and Humanitarian Sciences in Primary Education, Namangan State University. E-mail: turgunoy91@gmail.com

o'qituvchilar,
kollaboratsiya,
kreativ fikrlash,
muloqotchanlik,
kritik fikrlash,
kompetentlik,
tayanch kompetensiya,
bilim,
malaka,
ko'nikma.

Пути возникновения и развития понятия компетенции

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

компетентность,
коммуникация,
коммуникативный,
гармоничная личность,
ученики,
учитель,
коллаборация,
креативное мышление,
коммуникативность,
критическое мышление,
компетентность,
базовая компетентность,
знания,
умения,
навыки.

В этой статье приводятся размышления о возникновении и развитии слова компетентность. При этом отмечается и роль учителя в развитии компетентности, и необходимость налаживания коммуникативного общения.

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonimiz bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashga harakat qilmoqda va ba'zi sohalar bo'yicha ham mustaxkam o'rinlarni egallashga ulgurdi. Bu yutuqlar biz uchun hali kamlik qiladi. Boisi, biz buyuk allomalar, mutafakkirlar va olimlarning avlodlarimiz. Shu tinch va osoyishta kunlarga yetib kelgunimizga qadar yurtimiz boshidan juda og'ir kunlar o'tdi. O'tgan asrga nazar tashlaydigan bo'lsak jadidlar harakati ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular olg'a surgan g'oyalar va harakatlar zahirida buyuk, mustaqil yurt barpo etish g'oyasi yotadi. Yurtimizda so'nggi paytlarda jadidlar mavzusi tez-tez tilga olinib boshladi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev ham gapirdi. "Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir", – dedilar prezidentimiz so'zlarida [1]. "Jadidlar g'oyalari yangi O'zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir" – Shavkat Mirziyoyev [2]. Prezident Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida O'zbekiston mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi, degan savolni berdi. Uning aytishicha, mamlakat madaniy diplomatiyani kuchaytiradi. Shuningdek, o'zbek xalqi jadidlar ko'rsatgan yo'ldan og'ishmay borishi kerakligi ta'kidlandi. Yangi O'zbekistonni barpo etishimiz uchun esa biz avvalo ta'lim va tarbiya sohalariga alohida e'tibor qaratishimiz darkor. Jadid bobolarimiz ham buni chuqur anglagan holda xalqni savodli qilish va ularni dunyoning rivojlangan

mamlakatlarida ta'lim olishlarini bu orqali esa ularning yutuqlarini o'rganib o'zimizning ta'lim jarayonimizga tatbiq etishlari uchun harakat qilganlar. Yoshlarimiz har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish har birimizning vazifamizdir. Ta'kidlash joizki, jamiyatni axborot va kommunikatsion o'zgarishlarning hozirgi tendentsiyalari kommunikativ hamkorlik, hamkorlik, o'zaro tushunish masalalariga bog'lanmoqda. Shu munosabat bilan kommunikativ muloqotni barqaror rivojlanish omili va atrofdagi dunyo bilan munosabatlarni insonparvarlashtirishda o'sish kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ta'limni insonparvarlashtirish, o'qituvchining shaxsiyatiga qo'yiladigan yangi talablar o'qituvchining kasbiy madaniyatining turli xususiyatlariga, shu jumladan kommunikativ faoliyatni kuchaytirishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim sohasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga yaqqol misol darsliklarni tubdan yangilanishi va mavzular tarkibiga 4K modelini singdirilishidir. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish, yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi. 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta kompetensiyani o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda madaniy olimlar, psixologlar, tilshunoslar, shuningdek yozuvchilar va jurnalistlar, o'qituvchilar barcha sohalarida insonlar bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Har bir sohaga tegishli bilimlar ham mavjud. Lekin qaysi soha bo'lmasin barini ustozlar o'rgatishadi va o'qitishadi.

Kompetensiya (lotincha “competo” so'zidan olingan bo'lib, “erishaman, muvofiqlan, mos kelaman” ma'nolarini beradi) – kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishi tarixiga oid materiallarni tahlil qilinsa, uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to'rtta davrga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich (1960–1970-yillar) Bu davrda ilk bor “kompetensiya” va “kompetentlik” soʻzlari ilmiy adabiyotlarga kirib kela boshladi. Shu davrdan boshlab til oʻrganish nazariyasi yoʻnalishida til kompetensiyasi turlariga tegishli tadqiqotlar boshlanib D.Xayms tomonidan, “kommunikativ kompetentlik” tushunchasi kiritildi.

Ikkinchi bosqich (1970–1990-yillar). Bu davrda tilni oʻrganish (ayniqsa oʻz ona tilisi boʻlmagan) nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda kasbiy mahorat, rahbarlikqilishda, menejmentda, muloqot qilishni oʻrganishda kompetensiya / kompetentlik kategoriyalari ishlatila boshlandi. “Ijtimoiy kompetensiya / kompetentlik” tushunchalarining mazmuni ishlab chiqila boshlandi. Bu davr shunisi bilan ahamiyatli kompetentlikning turli koʻrinishlarida “tayyor boʻlmoq”, “layoqat” kategoriyalarining taqdim etilishi, shuningdek, “javobgarlik”, “ishonch bilan” kabi psixologik sifatlarni qayd qilinishi eʼtiborni jalb qiladi.

J. Ravenning 1984-yilda chop etilgan “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” nomli asarida kompetentlikka keng taʼrif beriladi. Bu shunday hodisaki, “u juda koʻp miqdordagi komponentlardan tashkil topgan boʻlib, ulardan koʻpchiligi bir-biriga nisbatan mustaqildir..., ayrim komponentalar koʻproq kognitiv sohaga tegishlidir, boshqalari – emotsional sohaga tegishli. Bu komponentalar oʻz-oʻzini samarali boshqarishda bir-birini toʻldirishi mumkin” deydi.

21 asr uchun taʼlim boʻyicha xalqaro komissiyada Jak Delorning “Taʼlim: yashirin xazina” nomli maʼruzasida “taʼlim tayanadigan toʻrtta ustunni taʼriflab beradi: – bu bilishni oʻrganish, bajarishni oʻrganish, birgalikda yashashni oʻrganish, yashashni oʻrganish”. Bu bilan global kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi. Jak Delorf fikriga koʻra, bajarishni oʻrganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega boʻlish, balki keng maʼnoda competent boʻlish nazarda tutiladiki guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan juda koʻp murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olsin.

Uchinchi bosqich 1990-yillardan boshlanadi. Bu davrda kompetentlikni ilmiy kategoriya sifatida taʼlimda nisbatan qoʻllash boʻyicha tadqiqot ishlari bajarildi. A.K. Markovanning (1993–1996) ishlarida mehnat psixologiyasi kontekstida kasbiy kompetentlik maxsus predmet sifatida har tomonlama qaraladi. Bu davrda shuningdek, oʻqituvchi kompetentligiga tegishli boʻlgan ishlar L.M. Mitina, L.A. Petrovskoy, N.V. Kuzmina, L.P. Alekseva, N.S. Shabligina va boshqalar tomonidan bajariladi. Mazkur yondashuv rivojlanishining uchinchi bosqichining yana bir jihati shundaki, YUNESKO materiallari va hujjatlarida taʼlimda kutiladigan natija sifatida bir qancha kompetentsiyalar ajratib olina boshlandi.

Toʻrtinch bosqich kompetentsiyaviy yondashuv kasbiy taʼlim, umumtaʼlim fanlari standartlari mazmuniga kiritish bogʻlangandir. 2006-yil 18-dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz taʼlim uchun quyidagi tayanch kompetentsiyalarni tavsiya qildi.

- Oʻz ona tilida muloqot qila olish;
- Chet tilida muloqot qila olish;
- Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetentsiyalar;
- Raqamli kompetentsiyalar;
- Oʻqishni oʻrganish;
- Ijtimoiy va fuqarolik kompetentsiyasi;
- Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuygʻusi;
- Madaniyatdan xabardor boʻlish va uni ifodalash.

Keng ko'lamli tayanch kompetentsiyalar: boshqalar bilan ishlay olish, o'qish va takomillashish, turli masala va muammolarni yechish ko'nikmasi.

AQShda 1980-yillardan boshlab ta'lim standartlari ishlatila boshlagan. Amerikaning tuman va shtatlari maktablarida yil yakunini baholashda shuningdek, bitiruvchi sinflarda o'quvchilarning bitirish imtihonlarida standartlashtirilgan imtihonlar (test)dan foydalaniladi.

Germaniyada 1970-yilda PISA tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning butun mamlakat bo'yicha past natija ko'rsatganidan so'ng ta'lim standartlari va dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Ta'lim standartida o'quvchilarga tayanch malakalar va kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib o'quv dasturi ortiqcha bilimlar bilan to'ldirib tashlanmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni alohida shakllantirish emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, o'qitish metodlari ham o'zgaradi. Kompetentsiyaviy yondashuvda o'qitish metodlarini tanlash va konstruksiyasini tuzish asoslarini ko'rib chiqaylik.

Kompetentsiya – o'quvchining ma'lum sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ta'lim tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talab.

Kompetentlik ko'p qirrali bo'lib uning turli talqinlari mavjud.

KOMPETENTLIK – o'quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal tajribasi.

Kompetentlik – o'quvchi tomonidan tegishli kompetentsiyalarga ega bo'lish.

Kompetentlik – o'quvchining shaxsiy sifatleri to'plami(bilim, ko'nikma, malaka, layoqatlari) bo'lib, belgilangan ijtimoiy va shaxsiy sohadagi faoliyatida orttirgan tajribasi bilan belgilanadi.

Kompetentsiyalarni ta'lim kompetentsiyalaridan farqlash lozim. Ta'lim kompetentsiyalari o'quvchini kelajakdagi to'la qonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Tayanch kompetentsiyalarining dunyo bo'yicha ma'lum ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning yoki hududning o'z an'analari, kelib chiqishi va ozziga xos talablari bor. Kompetentsiya – bu jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi yoki regiondagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi.

O'quvchilarning kompetentligiga doir turli kompetentsiyalarning analizi shuni ko'rsatadiki, ular kreativ (ijodiy) yo'nalishga ega.

Kompetentlik – kompetentsiyalarni qo'llay olishda ega bo'lishi kerak bo'lgan minimal tajribasi bo'lishni taqazo etadi. O'qitishda ularning ro'li va o'rnini analiz qilish asosida ajratib olingan kompetentsiyalarning asosiy funksiyalarini sanab o'tamiz:

- Kundalik hayotda yashash uchun tayyor bo'ladigan yosh fuqarolarga qo'yiladigan ijtimoiy talabning aks etishi;

- Bilim, ko'nikma, malakalarni hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo'llashi uchun atrof- muhitdan real obektlarni ko'rsatish;

- Turli o'quv predmetlarri va ta'lim sohalari mazmuninig tarkibiy qismi bo'lishi;

- Aniqlik masalalarniyechishda nazariy bilimlarni amaaliyotda foydalanish bilan bog'lash.

Kompetentsiyalarni uchta darajaga bo'lish mumkin.

1) tayanch kompetentsiyalar – ta'lim mazmunining umumiy qismiga tegishli.

2) umumpredmet kompetentsiyalar – ma'lum doiraga kiruvchi o'quv predmetlari va ta'lim sohalariga tegishli.

3) predmetga oid kompetentsiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib, o'quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

So'ngi yillarda jamiyatda, ta'lim jarayonlarida olib borilayotgan islohotlarni barcha o'zicha tahlil qilmoqda. Biz bu islohotlarni amalga oshirmasak kelgusida yuqori natijalarga erishishimiz dargumon bo'lib qoladi. Jahonda munosib o'rin egallashimiz uchun esa eng avvalo o'qituvchilarmizga e'tiborli bo'lishimiz kerak. Shubhasiz, zamonaviy o'qituvchiga bugunki kun juda katta talablarni qo'ymoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari ham ta'limdagi yutuqlarga o'qituvchilar orqali erishgan. O'qituvchi ona tilini yaxshi bilishi, muloqot jarayonida extiyotkor bo'lishi talab etiladi. D. S.Ghachev odamning nutqi haqida shunday deydi: "Biror kishini bilishning eng ishonchli usuli – uning o'zini tutishi, axloqiy ko'rinishi va eng muhimi aytayotgan so'zlarini tinglashdir". Bu nutq oquvchining xulq-atvori, ko'pincha o'qituvchini bilishi uchun uzoq muddat talab qilishi ham mumkin. Shunday bo'lsada muloqot jarayonida o'qituvchini so'zsiz hurmat qilishi yoki tortinishi uchrab turadi. Birinchi navbatda o'qituvchi bir tomondan aloqa faoliyatini amalga oshirishga imkon beradigan kommunikativ qobiliyatlar to'plami sifatida namoyon bo'lishi va o'quvchilar bu jarayonlarda o'zlarini erkin va qulay his qilishlari zarur. Tabiat, jamiyatning rivojlanish qonunlari yosh avlodni tushinishda, odamlar bilan kommunikativ munosabatlar tajribasini olishda o'qituvchining nutqi shubhasiz juda muhim ekanligi ko'p asrlar davomida o'z isbotini topmoqda. O'qituvchining faoliyati nutqni rivojlantirish muammolari bilan bog'liq va eng avvalo nutq bilan bog'liq bo'lib, ular til va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi obyektiv bog'liqlik printsipli asosida rivojlanadi.

Qattiqqo'llik – ko'p qatlamli hodisa, shu jumladan tadqiqotchilar, komponentlarning butun majmui. Biz to'rtta asosiy narsani ta'kidlaymiz:

1) Hamkorlik – aloqa jarayonidan zavqlanish qobiliyati.

(Pedagogik ishini tark etgan o'qituvchilarning aksariyati boshqa odamlar bilan muloqot qilish haqiqati ularning shaxsiy tabiati uchun o'ziga xos emasligini va kasbiy sifati bilan bog'liq emasligiga ishonadi. Bu xarakterli ko'plab zaif rahbarlarni belgilab qo'ydi. Pedagogik faoliyat – bu aloqa – doimiy, uzoq. Shuning uchun, kuchli iqtidorli o'qituvchilar tezda charchab, g'azablangan, tabiiyki, bu maktabda ishlashni qiyinlashtiradi).

2) ijtimoiy munosabatlar – Boshqa odamlar orasida jamiyatda bo'lishni istash. **Ijtimoiy munosabatlar** bu shunchaki vaqtinchalik ruhiy holat emas, balki shaxsning professional-pedagogik yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror shaxsiy ta'lim sifatida ko'rinmaydi.

3) altruistik tendentsiyalar (Altruizm – fidoyilik): hamdardlik va hamdardlik qobiliyati kabi hamdardlik. Qiyinchilikning asosi, asosi tijorat va altruistik hissiyotlarning aniq xususiyatiga ega.

Aloqa hislar orasida ajratilgan: fikrlarni, tajribalarni, hamdardlik hissi, joylashuvi, aloqa ishtirokchilariga hurmat va boshqalarni baham ko'rish istagi. Bu hissiyotlarning mavjudligi va pedagogik aloqalarga moyillikni ko'rsatadigan tajribalarga ehtiyoj.

Altruistik hissiyotlarda, ular odam bilan aloqa qiladigan odamlarga quvonch keltiradigan, boshqalarning quvonchini ham yetkazish taqsimlash.

4) identifikatsiya -boshqa odamning dunyosiga qanday chidash qobiliyatiga ega bo'lish qobiliyati.

Kasb darajasiga aylangan shaxsiy xususiyatlar mulki sifatida pedagogik aloqa samaradorligini ta'minlashi mumkin. Bu e'tiborga olish qonuniydir.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda bugungi mustaqillik sharoitida o'qtuvchilik kasbiga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda. Buyuk olim aytganidek bildirilgan fikrlarga qo'shimcha qilib D.I. Mendeleyev aytganidek: "Jon fido qilib ishlanmasa, na istedodlar va na daholar tug'iladi" degan ibratli so'zlari bilan o'z fikrimiz dalili sifatida keltirish o'rinli. Shuning bilan birga o'qituvchi oldiga qo'yiladigan talablar ham o'zgacha bo'lmoqda. Yana shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki, yaxshi matn, bilim va ko'nikmalarni nutq madaniyati bilan bog'lash uchun yetarli emas. Buning uchun matnni yaratish qonunlarini bilish kerak, buning uchun bu so'z g'oyasi yo'l aloqa qonunlari, kommunikativ va axloqiy xarakterdagi va madaniyatning boshqa tarkibiy qismlaridan xabardor bo'lishlari kerak. Chunki bugun O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan bu borada pedagog o'qituvchilarning o'z o'rnini va o'ziga xos mohiyati borligini unutmasligimiz lozim. Pedagog o'qituvchilarimizdan esa ta'lim tarbiya jarayoniga sitqidildan yondashib ertangi kunimiz egalari bo'lgan yosh avlodga chuqur va mustahkam bilim berishlari talab qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.amerikaovozi.com/a/7427563.html>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids/>
3. <https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida>
4. AUhadeva, L. A. Kelgusi o'qituvchini tayyorlash: kommunikativ madaniyatni [Matn] / L. A. Auxadeva // integratsiyalash. – Saransk, – 2006. – № 2. 40-57.
5. Bakulina, I.V. O'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari [Matn] / L. V. Bakulin // pedagogik texnologiyalar. – 2008. № 2.-9
6. Bystrov, E.A. Rus tilini va maktab darsligini o'rgatish bo'yicha kommunikativ uslub [matn] / E. A. Bystrov // rus adabiyoti. – 1996 yil. № 4. 4-5- p-4-5, 39 – 44
7. Vedinapina, V. A. O'qituvchining professional madaniyati [Matn]: / Vedinapina tadqiqoti. Universitet talabalari uchun qo'llanma. – Moskva, – 2003. 26-p.
8. Vvedit, V.N. O'qituvchining professional vakolatlari [matn]: / v.n tanishtirdi // ma'rifat. – SPB, – 2004. – 158 p.
9. Ivanchikova T.V. Nutqning vakolatlari yoki nutq madaniyati? / T.v. Ivanchikova / / pedagogika. – 2009. – 83-89 bet.
10. Izmailova M.A. Biznes suhbat: amaliy qo'llanma Barcha mutaxassisliklar uchun / m.A. Izmailova, O.V. Ilyina, quyi. Hamkorlik Universiteti. – m.: [B. va.] 2007 yil.
11. Izenko S. A. Ta'lim sohasidagi ekspertlarning ixtiyoriyati va kommunikativ madaniyati. / S. A. Izenko // Xalq ta'limi. – 2007 №8. P.115
12. <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/2194>
13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3K CkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3K CkAIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3K CkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3K CkAIAAAAJ:u-x6o8ySG0sC
15. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3K CkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3K CkAIAAAAJ:qjMakFHDy7sC